

“LISON UT-TAYR” VA “QUSH YO‘LI” DOSTONIDAGI QUSQLAR TIMSOLINING QIYOSI

Norova Nasiba,
f.f.f.d (Phd), BuxDU dotsenti

Mustafoyeva Nigina,
BuxDU O‘zbek adabiyot yo‘nalishi 2-kurs magistrant i

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Lisonut tayr” va Omon Matjonning “Qush yo‘li” dostonlari muqoyosa qilingan. Dostonlardagi o‘xshash syujet va obrazlarni qiyosan o‘rganib, farqli jihatlarga ham e’tibor qaratganmiz. Qusqlar odatda qanoti, pati bilan, shuningdek, osmonda uchish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Qusqlarga qadimdan inson va tabiatni bog‘lovchi ilohiy kuch sifatida qaralgan va bu qarash bugungi kunga qadar davom etib kelyapti. Qaldirg‘och, qarg‘a, hudhud, burgut, shunqor, zag‘izg‘on kabi qusqlarning badiiy timsol sifatida qo‘llanishi xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyotda turli timsol vazifasini bajarib kelayotganligi, turg‘un birikma, tag matnda boshq ramziy ma’no ifodalashi, badiiy san’atlarni hosil qilishi kabi masalalar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘z: Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot, doston, timsol, qush, bulbul, hudhud, semurg‘.

“Qusqlar osmonda uchish, yerda yurish, ayrimlari suvda ham suzish xususiyatiga egaligi bilan qadimdan odamlar e’tiborini tortgan. Shu xususiyatlariga ko‘ra odamlar ularni sirli olam vakili, bir olamni ikkinchi bir olam bilan bog‘lovchi sifatida qaragan. Bunday qarash butun dunyo xalqlari orasida mavjud”. Qusqlarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati xilma-xildir. Qusqlar haqida mif va afsonalar turlicha talqinlarda yetib kelgan. Bugungi kunda qusqlarni adabiyotshunoslikda alohida timsol sifatida qo‘llash o‘ziga xos an‘ana sifatida davom etib kelyapti. Dastlabki qusqlar timsoli folklor asarlarida uchratamiz. Xalq ertaklari va e’tiqodlariga ko‘ra, qusqlar yorug‘lik, quvonch, baxt, omad timsoli hisoblangan. Qush obrazni qadimdan folklor va adabiyotga singib ketgan. Ertak, qo‘sinq, hatto, xalq dostonlarida ham qush timsolini uchratamiz. “Qusqlar jahon xalqlari mifologiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lib, voqealar jarayonida birdaniga paydo bo‘luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o‘zgartiruvchi unsur sifatida e’tirof etiladi. Ular, asosan, ilohiyot bilan odamlarning o‘rtasidagi ko‘prik sifatida, yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan”. Jumladan, qomusiy olim Ibn Sinoning “Tayr” qissasida xalq folklori motivlaridan foydalangan holda inson ruhi, holatini qush timsoli orqali ochib berishga harakat qilgan. Shu tariqa, asta-sekinlik bilan qush timsoli mumtoz adabiyotga ko‘cha bosqladi. O‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, qush timsoli qadimdan bejizga insonlarning do‘sti deya ta’riflanmagan.

Mumtoz adabiyotda ham qusqlarni timsol sifatida qo‘llash an‘ansi davom etdi. Mana shunday timsollar asosida yaratilgan durdona asarlarimizdan biri bu so‘z mulkining sultonini Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidir. Ushbu asar Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari ta’sirida yaratilgan. Mutaxassislarining qayd etishicha: “Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga qadar ham qusqlar timsollari asosida yozilgan asarlar mavjud edi. “Abu Ali ibn Sinoning (980–1037) “Risolat ut-tayr”, Abu Homid Muhammad G‘azzoliyning (1040–1111) ham xuddi shu nomdagisi “Risolat ut-tayr”, Shahobiddin Suhravardiyning (vafotи 1191) “Risolayi musammo ba safari Simurg” asarları yozilgan edi. Farididdin Attor ana shu an‘anani davom ettirib, ajoyib, o‘ziga xos, go‘zal doston yaratgan. Navoiy “Lison ut-tayr”da uni Attorning eng zo‘r asari, deb hisoblaydi”. Shuningdek, turk shoirlari Yunus Emro, Gulshahriylarning “tayr”ga oid qissalari ham Navoiygacha yozilgan. Ularda ham “tayr syujeti” majoziy mohiyat kasb etgan. Alisher Navoiy esa mazkur syujetni ulkan ezoterik sathda majozlashtirdi, mazmun-shakl jihatidan haddi a’losiga olib chiqdi. Keyinchalik, XVIII asrda Xorazimda yashab ijod etgan Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Riyoziy ham Sharq adabiyotida keng tarqalgan mavzu qusqlarning ramziy sarguzashtlariga bag‘isqlab doston yaratgan. “Mavlono Riyoziy dostonidagi g‘oyaviy yo‘nalish va hikoyatlardagi mazmunga qaraganda u o‘z davrining o‘ta bilimdoni, diniy ilmlarni puxta egallagan hamda islom dini falsafasini chuqr bilguvchi olim bo‘lgan. Uning ta’kidlashicha, Qush tili dostonning yaratilishidan maqsad, Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” nazira yozish orqali o‘zining diniy-falsafiy g‘oyalarini bayon etishdan iborat bo‘ladi. Dostonda bayon etilgan jamiyki voqealari-hikoyatlar, insonni

dastlab nafsoniy illatlardan forig‘ bo‘lishiga, so‘ngra axloqan barkamollikka erishgach, ruhan “vahdati vujud” sari boqiylik olamiga ramziy shakllarda qusqlarning Simurg‘ yo‘lboshchiligidagi parvozi orqali chorlaydi. [Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Riyoziy “Qush tili”. Shafoat Hasanova Riyoziyning “Qush tili” dostoni “Tezkor Press Print” Toshkent. 2009 B. 4]

Navoiy dahosi bilan yaratilgan bu asarda o‘rta asr Sharq mutafakkirlarini asrlar davomida o‘ylantirib kelgan inson va tabiat o‘rtasidagi falsafiy qarasqlar mushohada etilgan. Shoir ushbu dostonida insonning ma’naviy kamolotga erishish yo‘lini qusqlar timsoli orqali ochib beradi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni to‘lig‘icha ramz asosida qurilgan. Chunki bu obrazlarning asosini qusqlar obrazi tashkil qiladi. Mumtoz adabiyotimizdagi qush timsoli muhim ahamiyat kasb etadi. Ular insoniyat va tabiat o‘rtasidagi yaqinlilikni o‘zida mujassam etadi. Bugungi kunda zamonaviy she’riyatda qush timsolida juda ko‘p foydalananib keliniyapti. Dastlab folklor, so‘ng mumtoz adabiyotga, keyinchalik zamonaviy adabiyotga ko‘chgan qush timsoli dunyoda o‘z o‘rniga ega, xalq qahramonlarining tipik xususiyatlarini aks ettirishda yordamlashadi. Xususan, o‘tgan asrning XX asrning 70-yillarda o‘zbek adabiyotida sermahsul ijod qilgan iste’dodli shoir Omon Matjon ijodidagi qush bilan bog‘liq ramziy obrazlar ijtimoiy hayotdan tanlangan va bu timsol orqali hayotimizda ro‘y berayotgan voqealar bilan bog‘liqligini ko‘ramiz. Falsafiy mushohadalar, ruhiy ta’sir etuvchi hikoyatlar, ijtimoiy munosabatlar shoirning “Qush yo‘li” dostonida aks ettirilgan. Dostonini taqlil qilar ekanmiz, asarda qo‘llanilgan turli-tuman qusqlar timsoli orqali asarning mazmun-mohiyatini ochib berilgan. Omon Matjonning “Qush yo‘li” dostoni hazrat Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridan ruqlanib yozganligini, boshdan oxir ramz asosida qurilganligini ko‘rishimiz mumkin. “Besh yuz yil o‘tibdi, qolganmi samar? Hollaridan kimsa olganmi xabar”, – deb yozadi ijodkor. Ya’ni Navoiyning besh yuz yil ilgari yaratgan dostoniga qayta sayr ettirishni istaydi. Dostonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, Omon Matjon asarida “Lison ut-tayr” dostonidan parcha keltirib, epigraf sifatida foydalandi va muddao she’riy shakli bilan asarni bosqlaydi.

“Yana bir soyil dedi: “K-ey ilmkesh,
Bu safarkim ko‘nglumizni qildi resh.

Qat’ o‘lub shah bazmig‘a bo‘lsak anis,
Tuhfae vojibdurur behad nafis.

Shahni ko‘rmak tuhfai maqbul ila,
Bizni ondin ogoh et maqbul ila”.

Javob:
“...Sen o‘zung birla niyozu dard elt,
Jismi zoru joni g‘amparvard elt,

Onda yetur so‘z ila dardu fano
Istar o‘lsang o‘zni qilmoq oshno” .

Zamonaviy dostonlar ikkilik shaklida yozilishini yaxshi bilamiz. Muddao shaklini “Qush yo‘li” dostoni syujetiga e’tibor qaratsak, dostonda 30 ta qushning mart oyining oxirlarida, ya’ni Navro‘z kunlarida G‘allaorol cho‘llari yaqinida Baxmal tog‘lari pinjida to‘planishi haqida so‘z boradi va Semurg‘ni ko‘rishni, ya’ni uning timsoli orqali Haq diydorini ko‘rishni, uning diydoriga yetishishni Hudhudga ishonib topshirishadi. Omon Matjon asarida mumtoz an’analarni davom ettirib, Hudhud boshchilida barcha qusqlar boshidan kechirgan voqealari hikoya qilib, Semurg‘ni jamoliga yetishish uchun yo‘lga chiqishadi. Asarning ba’zi farqli jihat shu o‘rinda ko‘zga tasqlanadiki, bunda o‘ttiz qushning boshdanoq Semurg‘ni izlab yo‘lga chiqishi kuzatilsa, “Lisonut tayrda” asar so‘ngida ayonlashadi.

Dostonda Semurg‘ni quyidagicha tasvirlaydi:
Voqif bo‘lib tojdar Simurg‘ shonidan,
Jamiki qusqlarning mehribonidan!

Semurg‘ qushi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni “Avesto” kitobida uchratamiz. Semurg‘ – xayoliy, mifologik qusqlardan biri bo‘lib, o‘zbek folklorida alohida o‘rin tutadi. “O‘zbek xalq ertaklaridagi Semurg‘ obrazi O‘rta Osiyo mifologiyasining mahsuli bo‘lib, “it-qush” haqidagi mifik tasavvurlar bilan aloqadordir. Semurg‘ qadimgi zardushtiylik mifologiyasida it bosqli, qush siyratli asotiriyl jonzot sifatida

tasvirlangan. Garchi o‘zbek ertakchiligi an’anasida Semurg‘ning ko‘rinishi va funksiyasida Senmurvga xos sifatlar ko‘zga tasqlanmasa-da, ammo bu afsonaviy qushning qahramonni o‘zga olamga olib borishi bilan bog‘liq bir detal unda “it-qush”ga doir ayrim belgilar saqlanganligini ko‘rsatadi. Bunga misol tariqsida, “Zorliq bilan Mungliq” ertagini olishimiz mumkin. Bizningcha, Senmurv yoki Semurg‘ qadimgi o‘rtal osiyoliklar mifologiyasida it gavdali, qush qanotli afsonaviy jonivor sifatida tasvirlangan. Keyinchalik esa bu mifologik tasavvurlar unutilib, u ertak va dostonlarimizda qahramonni mushkul ahvoldan qutqaruvchi, poloponlarini ajdar xurujidan omon saqlab qolgan qahramonni olis manzillarga tez yetkazuvchi, epik qahramonga ko‘maklashuvchi xayoliy qush obrazi tarzida tasvirlana bosqlagan”. Semurg‘ afsonaviy qush bo‘lishiga qaramay, ertaklarda insonlarga ko‘maklashuvchi, qiyin vaziyatda xaloskor qush sifatida tasvirlanib kelingan. Bu qarasqlarni mumtoz adabiyotimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Xalq og‘zaki ijodi badiiy an’alarining bevosita ta’sirida o‘zbek mumtoz adabiyotida ham Semurg‘ obrazi badiiy timsol sifatida qo‘llanilib kelgan. Jumladan, Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarida, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida Semurg‘ timsolidan qusqlar podshosi va ramziy ma’noda Ollohnning tasavvufiy obrazini aks ettirish uchun foydalilanilgan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidagi bosh qoliplovchi hikoya 14-bobdan bosqlanadi: jahon qusqlarining yig‘ilishib martaba va fazilatlariga ko‘ra joy talashisqlari voqeasidan tortib, qusqlarning Hudhud yo‘lboshchiligidagi Simurg‘ni izlab yetti vodiydan o‘tisqlari va Simurg‘ni topolmay, Simurg‘ni izlashga chiqqan si murg‘ (o‘ttiz qush)ning o‘zi ekanligini bilisqlari asarda yorqin ifodalangan. Navoiy iborasi bilan aytganda, riyozat chekib, o‘zlarida eng go‘zal sifatlarni mujassam etib, komillik darajasiga erishdilar. Demak, shoir mana shu qusqlarni Semurg‘ni izlasqlari va unda o‘zlarini ko‘risqlari orqali insonning komillikka erishishini o‘zgacha talqinda ifodalab bergan. Omon Matjon ijodida ham Semurg‘ timsoli orqali Olloh vasfiga yetishish, komillikka erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni ochib berishga harakat qilgan. “Lison ut-tayr” va “Qush yo‘li” dostonlarining o‘xhash jihat shundaki, ikkala asarda ham Semurg‘ning ta’rifini Hudhud so‘zlaydi. Navoiy asarida ham, Omon Matjon ijodida ham bu timsol barcha qusqlar uchun ideal obraz sifatida gavdalantiriladi. Omon Matjon mumtoz klassik adabiyotda yaratilgan qusqlar haqida yozilgan asarlarni an’anaga muvofiq “Qush yo‘li” dostonida munosib izdosh sifatida davom ettiradi.

Hudhud boshchiligidagi Navro‘z saylida yig‘ilgan qusqlar bir-birlarining dardlari, tashvish-u hasratlari, bosqlariga tushgan turli mushkulotlarini tinglashadi. Hudhud har bir qushning fig‘on bilan aytgan shikoyatlarini tinglaydi, har bir qushning xususiyatlari haqida to‘xtaladi. Bundan tashqari, dostonidagi asosiy obrazlardan yana biri bu Hudhuddir.

Hudhud qadimdan Qur’oni Karimda zikr qilingan qusqlardan sanaladi. Uning Sulaymon alayhissalom bilan bo‘lgan qissasi bugunga qadar mashhurdir. Qissada Hudhud xat tashuvchi timsoli orqali gavdalantirilgan. Uning zakovati, omonatdorligi, aql-u farosati asarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Shuningdek, Hudhud bir mamlakat aholisining musulmon bo‘lishiga sababchi bo‘lgan.

Navoiy talqiniga ko‘ra, Hudhud aql nuridan bahramand va rahbarlik jilg‘asi bilan sarbaland bo‘lgan bir qushdirki, uning zotida sharaf va izzat nihoyatda yuksak bo‘lib, boshini to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi toj bezaydi. U Arsh oldida parvoz qiladi va Jabroil kabi unga ham yuz xil sirlar ayon bo‘lib turadi. Asarda esa Navoiy quydagicha tasvirlaydi:

Hudhud ul nuri xiraddin bahramand,

Rohbarlig’ afsaridin sarbaland.

Zotiga izzat sharaf me’rojidin,

Boshida zevar hidoyat tojidin.

Jabrailoso ayon yuz roz ango,

Qurb arshi avjida parvoz ango.

Navoiy asarida bu qushga alohida e’tibor qaratadi va boshqa qusqlarda ko‘rinmaydigan jihatlarni aynan Hudhudda namoyon qiladi. Shuningdek, asarda Hudhud dono, idrokli va hattoki, Jabroilga tenglashtirib tasvirlanadi. Uning donishmandligi, ko‘zlangan manzilga borish yo‘lidagi qiyinchiliklarni va o‘ziga ergashgan qusqlarni ortga qaytmoqchi bo‘lganida ham ularni ruqlantirib yo‘lida davom ettirishi asarda o‘zgacha talqinda namoyon etilgan. Omon Matjon asarida ham Hudhudga alohida urg‘u berib o‘tadi, barcha qusqlarga bosh bo‘lib, ularni to‘g‘ri yo‘lga bosqlaydi. Davra qurib yig‘ilgan qusqlar orasida birinchi bo‘lib, Shunqorga yuzlanadi va so‘z beradi:

Davramizda o‘zing sarvarsan aniq,

Bilaman, gaping bor, ko‘zlarin yoniq...

Shunqor qadimdan mifologik qush hisoblangan, lochinsimonlar oilasiga mansubligi bois, uni “ov

qushi” deb atashgan. “Afsanaga ko‘ra, quzg‘un o‘z uyasida ikki dona tuxum qo‘yar, tuxumlarning biridan Tuyg‘un degan serjun it, ikkinchisidan esa Shunqor deb ataluvchi ov qushi chiqarmish” .

Mumtoz adabiyotimizda bu timsol o‘zgacha talqin qilingan. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida Shunqor o‘zini “qusqlarning podshohi” deya ta’kidlaydi. Bundan tashqari, baland osmonni va shoh qo‘lini o‘ziga makon qilgan Shunqor, sen qusqlar orasida xuddi shoqlar kabi tojga egadirсан, shoh boshingga oltin tojni loyiq ko‘rgan. Sen tojli qusqlarga bosqliqsan, senda o‘zgalarning o‘ntasidagi jur’at bor, shu sababli shoh senga yaxshi qismatni ravo ko‘rdi, - deydi. Navoiy bu timsol orqali boylig-u amalga ruju qo‘yan shaxslarni nazarda tutadi. Shuningdek, qalbida Ollohga bo‘lgan muhabbat orqali komil insonlar qatorida bo‘lishni uqtiradi.Omon Matjon ham o‘z asarida Shunqorni “Ey tojdor” deya ta’kidlaydi. Asarda Shunqor davr siyosati, paxtazorlar ko‘payib, yaylovlar kamayib ketayotgani, 1939-1940-yillarda yovvoyi qusqlarning qirilishi haqida hikoya qiladi. Qusqlar timsoli orqali shoir o‘z davridagi jamiyatning turli illatlarini fosh qilishga erishadi.

Ayniqsa, ellik yil chamasi avval,

Odamlar qo‘liga tegdi bir amal:

“Otilsin, dedilar,yovvoyi qusqlar!”

Bosqlandi beomon qirg‘in-tutisqlar.

So‘ng bulbul, chag‘alay, to‘ti, laylak, qirg‘ovul, chumchuq kabi qusqlar o‘z hasratlarini bo‘lishishadi. Suhbat so‘nggida qusqlar “Mehrjon” bayrami uchun tuhfa olib kelish maqsadida turli o‘lkalarga ravona bo‘lishadi.

Ne deysiz? Jonga jips aylab imkonni,

Kutsak to’kin kuzni va Mehrjonni?!

Andak quvvat yig‘ib tanu bolu par,

Saxiy bayram o‘zi bo‘lib chin xabar,

Yana yig‘ilishsak ushbu makonda,

Bor gapni hal etsak o’sha zamonda!

Turfa sovg‘ani-da bir-bir ko‘rardik,

Agar kami bo‘lsa, tadbir ko‘rardik!

Qusqlarga bu taklif ma’qul keladi va yozda sovg‘a tayinlash, kuch yig‘ish uchun o‘z makonlariga qaytib ketadilar. Kuzda “Mehrjon” bayramida yana Baxmal tog‘lari orasida G‘allaorol adirlarining bir yonida uchrashishga kelishib olishadi. Asar so‘nggida qusqlar turfa xil sovg‘alar bilan yana o‘sma makonda uchrashishadi. Jumladan, Oqqush Surxon vodiylariga yo‘l oladi va timqora toyning yo‘lini, Shunqor sehrli tanga, Lochin bepichoq qin, Mirzoqush esa ohanrabo olib keladi. Aynan “Mehrjon” bayramining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, shoirona bashorat bilan kuzda mustaqillik, istiqlol bayramining bo‘lishini va unga tuhfalar olib kelinganlini bashorat qiladi.

Dostonning “Lison ut-tayr”dan farqli jihat shundaki, unda “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr”da uchramaydigan yangi qush timsollari kiritilgan.

Lison ut-tayr Qush yo‘li

Semurg‘ Semurg‘

Qaqnus Qaqnus

Hudhud Hudhud

Shunqor Shunqor

Samandar To‘ti

Bulbul Laylak

To‘ti Chag‘alay

Tovus Kabutar

Qumri Bulbul

Kabutar Qirg‘ovul

Kabki dari (kaklik) Oq qush

Tazarv(tustovuq) Ola qarg‘a

Burgut(uqob) Chumchuq

Kuf Qarg‘a

Tovuq(xo‘roz) Musicha

Qarchig‘ay Tustovuq

Xumoy Ko'k kaptar
Qalog'(olaqarg'a) Mirzoqush
Xod(kalxat) Kapachi
O'rdak Qaldirg'och
Durroj(qirg'ovul) Lochin
Shoxboz(lochin) G'oz
O'rdak
Zag'izg'on
To'rg'ay
Bedana
Boyqush
Bur gut
Turna
Kakku

Shoir Omon Matjon ba'zan mumtoz an'analarni aslicha davom ettiradi. Jumladan, Semurg', Hudhud, Shunqor, To'ti, Tovus, Bulbul, Kabutar, Qirg'ovul kabi obrazlarni o'z asarida qo'llaydi. Ba'zan esa novatorlik yo'lidan borib, Kapachi, Mirzoqush, Itolg'i, Tasqara, Turmtoy, Jag'altoy, Oqqush kabi qush timsollaridan foydalanadi. "Qush yo'li" dostonini taqlil qilar ekanmiz, asarda qo'llanilgan turlituman qusqlar timsoli orqali komillikka erishish, shuningdek, davr siyosatini, insonlarning qilmisqlarini, xalqning ahvolini fosh qilishga harakat qilgan. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, qusqlar timsoli orqali Omon Matjon ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy muammolarni qalamga oladi. Qalami o'tkir ijodkor va buni obrazlarni o'z o'rnida qo'llay olganligidan bilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Z.Mamadaliyeva "Ikki maqola", "Sharq yulduzi" jurnali, 2013/6
2. Mamatqul Jo'rayev, Darmonoy O'rayeva "O'zbek mifologiyasi", 24-25-405-bet, T, Excellent Polygraphy, 2020
3. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr", T., "G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi", 1991, 34-37-bet
4. Omon Matjon. "Qush yo'li" T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990, 25-76-bet.
5. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – C. 913-915.
6. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSQLAR TIMSOLI//ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
7. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – C. 100.
8. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
9. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //Центр научных публикатсий (buxdu. uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
10. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
11. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАТСИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
12. www.ziyouz.com